



O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
XORIJIY FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI



O‘ZBEK TILI

18-amaliyot

O‘ZMU -2020



Iqtidor va mehnat. Matnga so‘z va termin tanlash

Mavzu rejasi:

- 1. Iqtidor va mehnat*
- 2. Kasb sohasida muvaffaqiyatga erishishda mehnatning roli.*
- 3. Matnga so‘z va termin tanlash*



1. IQTIDOR VA MEHNAT

Insondagi qobiliyat, iqtidor, eng avvalo, inson aqlu zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlaydi. Shuning uchun ham psixologiyada ko'proq iqtidor va qobiliyat tushunchasi aql-zakovat tushunchasi bilan bog'lanib o'rganiladi.

Aslida iqtidor ilohiy in'om, u har kimga ham berilavermaydi, uni to'g'ri yo'naltira bilish kerak.

Qobiliyatli odamdan, avvalo, jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi. Inson o'z iqtidori va qobiliyati, salohiyatiga ko'ra mehnat qiladi.



2. Kasb sohasida muvaffaqiyatga erishishda mehnatning roli.

Mehnat kishilik jamiyati hayotining asosiy sharti, chunki u tufayli insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratiladi. Insonning maqsadli faoliyati tufayli mehnat predmetlari mahsulotga aylanadi. Mehnat tufayli inson tabiatdagi narsalarni o'zgartiribgina qolmaydi, balki o'zi ham kamol topadi, uning aqliy va jismoniy qobiliyatlari o'sadi. Mehnat jarayonida inson tabiat kuchlarini o'z maqsadiga bo'ysundiradi.

Tarixdan ma'lumki, iqtidorli insonlar oddiy insonlardan ko'rinishlari bilan ajralib turishmaydi. Ammo iqtidorli inson yaratgam mahsulot xoh u kuy bo'lsin yoki surat u boshqalarning e'tiborini tortadi va o'ylanishga majbur qiladi.

Qobiliyatlar muoammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko`nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog`liq .Ayniqsa, biror kasbning egasi bo`lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo`lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko`proq qobiliyat tushunchasi aql-zakovat tushunchasi bilan bog`lanib o`rganiladi.





Mehnat - insoning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati.

Mehnat o‘zining mazmuni va xarakteri jihatidan aqliy, jismoniy, malakali (murakkab) va malakasiz (oddiy) mehnatga bo‘linadi.

Aqliy mehnat – insonning tafakkur faoliyati (muhandis, shifokor, o‘qituvchi).

Jismoniy mehnat – insonning jismoniy faoliyati(ishchi, dehqon).

Malakasiz mehnat – maxsus tayyorgarlikni va qobiliyatni talab etmaydigan mehnat (yuk tashuvchi, farrosh, qorovul).

Mehnat iqtidorning yuzaga chiqishida katta omil hisoblanadi.

Mehnat o‘zining mazmunin va harkteri jihatidan aqliy, jismoniy, malakali(murakkab) va malakasiz(oddiy) mehnatga bo‘linadi.

Aqliy mehnat –insonning tafakkur faoliyati(mahandis,vrach,o‘qituvci,olim).

Jismoniy mehnat- insonning jismoniy faoliyati(ishchi,dehqon).

Malakasiz mehnat maxsus tayyorgarlikni va qobiliyatni talab etmaydi(yuk tashuvchi,farrosh,qorovul).





Matn ustida ishlash


- Ey farzand, aqlli, farosatli va ilm-u hunarli kishilar bilan do‘st bo‘l. Hunarsiz kishida xosiyat bo‘lmaydi. Mehnatdan, ilm-u hunar o‘rganishdan uzoqlashma. (*«Qobusnoma»dan*)
- Bilim mehnat bilan, tilak g‘ayrat bilan go‘zal.
- Odamni katta gavda emas, aql yuksaltiradi.
- Inson ilmu hunari va aql-idroki bilan har qanday qushdan balandroq parvoz qila oladi.
- Bilimdonlikning siru asrori g‘ayrat hamda matonat bilan o‘qish va o‘rganish, o‘zlashtirishdadir.
- Bobolarning ulug‘vor ishlarini ijodiy rivojlantira olsang, sen baxtiyorsan.



Tarjima mashqi

Всё, что тебя окружает, создано трудом человека. И сам ты, сегодняшний студент, завтра встанешь в ряды тех, кто трудится на благо народа. Тебе предстоит строить будущее. Постоянно работай над собой, помогай другим, стремись быть скромным, волевым, решительным и мужественным человеком. Будь требовательным к самому себе: умеи признавать свои ошибки, исправляй их, не обижайся на справедливую критику.

3-dekabr “Xalqaro nogiron”lar kunidir. Imkoniyati cheklangan insonlar hayotda ko‘p yutuqlarga ershganligiga misolar ko‘p.





Lugʻat bilan ishlash

ilm-fan	–	наука
qarshi kurashmoq	–	бороться против
ilmiy ish	–	научная работа
faol	–	активный
tanlov	–	выбор, конкурс
hakamlar	–	судьи, жюри
mashgʻulotlar	–	занятия
baho bermoq	–	аттестовать, оценивать
izlanishlar	–	искание, поиски
hissa qoʻshmoq	–	доля впрягать, вкладывать



3. MATNGA SO‘Z VA TERMIN TANLASH

Matnshunoslikka oid adabiyotlarda qayd etilishicha, har qanday matn, u ilmiymi, rasmiymi, badiiymi – bundan qat’iy nazar, mantiq qoidalariga asosan shakllanishi lozim. Izchillik ana shu qoidaning birinchi talabidir. Matnda har bir so‘z, har bir gap va abzatslar o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish va izchillik bo‘lishi lozim. Agar shunday bo‘lmasa, matnni tushunish qiyin bo‘ladi.

Matn tuzishda matn uchun tanlanayotgan so‘z va terminlarga alohida ahamiyat berish lozim. So‘zlarning lug‘aviy ma’nosini bilgan holda ularni ishlatish, terminlarni to‘g‘ri va to‘liq talaffuz eta olish, matnga mos termini tanlash juda muhim

Ixtisoslikka matnlari uchun so‘z va terminlarni to‘g‘ri tanlash hamda ularni qo‘llay bilish nutq madaniyatining, kasbiy bilimdonlikning muhim sharti hisoblanadi



Ixtisoslikka oid matn tuzish, ularga so‘z va termin tanlashda quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim:

- matnning qaysi nutq uslubida yozilishi kerakligini oldindan bilish;
- ixtisoslikka oid so‘z, terminlarni to‘g‘ri tanlay olish, ulardan o‘rinli foydalanish;
- so‘z va terminlarni imlo me‘yorlariga rioya qilgan holda yozish;
- tanish bo‘lmagan yoki faol qo‘llanmaydigan termin, shartli belgi yoki qisqartmalarga qavs ichida izoh berish;
- ixtisoslikka oid terminlarni boshqa tillardan o‘zlashtirish va so‘z yasashda milliy tilning tabiatini nazarda tutish;
- ularning ta‘sirchanligini oshirish maqsadida leksik, morfologik va sintaktik sinonimiya imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish lozim.



Matn ustida ishlash

Har qanday matn muallifning o‘zi yoki o‘zgalar tomonidan tahrir etilar ekan, u qator mezonlar asosida amalga oshiriladi. Rus tilidagi “redaktirovat” so‘zi aslida lotinchadan olingan bo‘lib, “tartibga keltirish” degan ma’noni anglatadi. Har qanday tahrir muallifning asosiy maqsadiga tayanadi. Tahrir etuvchi muallif ishiga xolislik bilan yondashishi, unga ko‘maklashishi zarur. Tahrir etish yozishdan ham murakkab bo‘lib, unda o‘zgartirishlar, tuzatishlar qilinadi, imlo va tinish belgi xatolari to‘g‘rilanadi, uslubiy g‘alizliklar yo‘qotiladi, yangi so‘z va iboralar qo‘shiladi yoki qisqartiriladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Abduraxmonova M., Fattoxova D., Xalmuxamedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2019.
2. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhлари uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019.
2. Nazarova K., Xo‘janova G. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: TDYU, 2003.